

*Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi Adabiyot bo'limi
ilmiy hodimi: X.Yuldasheva*

Ma`lumki bu muzeylarda o'z aksini topgan tarixiy jarayon notekis rivojlangan. Turli mamlakat va mintaqalar uchun ijtimoiy-tarixiy formatsiyalarning tarixiy chegaralari bir xilda emas. Ularning almashinushi ham turli shakllarda amalga oshgan. Xar bir mamlakatning tarixi o'zining takrorlanmas xususiyatlarga ega. SHuning uchun ekspozitsiyalarning tematik strukturasi xam mazmuni ham bir-biridan farqlanadi. Formatsiyalar tarixiga bag'ishlangan zallar farmattsianing vujudga kelishi, rivojlanishi va mafkuraviy ust qurulmasini xarakterlaydi.

Qadimgi dunyo tarixi bo'yicha ko'rgazma ibridoiy tuzim to'g'risidagi yagona manba bo'lган arxeologik materiallar asosiga ko'rildi. SHunday qilib bu yerda tadqiqot obe`kti va ko'rsatuv ob`ekti bir-biriga mos tushadi, bu esa ekspozitsianing yuksak ilmiy patntsialga ega bo'lishiga olib keladi.

Arxeologik ko'rgazmalar insonning shakllanishida mehnatning o'rni, sinfiy jamiyatdan oldingi jamiyatni tuzilishi, ibridoiy diniy etiqodlar xaqida tushunchalarini yetkazadi.

Mamlakat xududida yashagan turli xalqlar tomonidan yaratilgan madaniyat yodgorliklarining namoyish etilishi ayrim irqlarning "abadiy" qoloqligi yoki "tugma" ustunligi xaqidagi reaksiyon nazariyalarni rad etadi. Bu hammasi dunyoqarashni shakllantirishda muhim axamiyatga ega.

Ko'rgazmada muayyan arxeologik yodgorlik yoki arxeologik madaniyat, jamiyat taraqqiyotining ayrim tomonlarini tavsiflovchi ekpozitsion komplekslar tashkil etilishi mumkin. Muzeylarda arxeologik yodgorliklarning o'zini, asl parchalarini qo'shib rekonstruktsiya qilingan yodgorliklarni qo'shib ekspozitsiya vujudga keltirish xam mumkin. Maketlardan foydalaniish amaliyoti xam keng qo'llanadi.

Kupina arxeologik ekspozitsiyaga arxeologik tadqiqot materiallari (arx, yodgorlikliklar kartasi, topilmalar joyining plani) xam kiritiladi. Quldorlik tuzumi, ilk feodal tuzumi xaqidagi ekspozitsiyalarni yaratishda xam arxeologik materiallardan foydalanish mumkin.

Feodal tuzum bo'yicha ekspoztsiya bir qaror o'ziga xosliklarga ega.

Muzeylarda saqlanayotgan IVI-XIX asrning birinchi yarmiga oid tarixiy yodgorliklar asosan xukmron sinflarning turmushi va madaniyati, davlat tuzulishi, xarbiy ishni aks ettiradi. Fondlarda cheklangan mikdorda etnografik ma'lumotlar, o'rta asr xunarmandchiligi va dexqonchiligi kollektsiyalari mavjud. Odatda bular xalq san`ati predmetlaridir. Shuning uchun xam tarixiy muzeyshunoslik oldida bu predmetlarni juda puxtalik bilan tanlash, uni muayyan bilish maqsadlariga bo'ysindirish, ulardan xilma-xil axborotdan belgilangan mavzu kontekstida, bir vaqtning o'zida yozma manbalarni kushgan xolda foydalanish vazifalari turadi. Xalq mehnati natijasi bo'lган predmetlar ishlab chiqarish uslubi, shuningdek xalqning ijodiy kuchi, ma`naviy boyligi xaqida ma'lumot beradi.

Feodalizm davridagi sinfiy kurash mavzusida ekspozitsiya kompleslar tashkil etishga katta e'tibor beriladi. Bu mavzuga tegishli buyumlar juda oz shuning uchun xam juda muxim bo'ladi. Ekspozitsiyalar asosan yozma manbalar va tasviriy materiallar asosiga kuriladi.

Kapitalistik tuzumga bag'ishlangan ko'rgazmalarni tashkil etadi bir qator qiyinchiliklar mavjud. Birinchidan XIX asrning oxiri XX asr boshlarida vujudga kelgan ekspozitsiyalarda bu davrning moddiy madaniyati juda kamchilik predmetlarda aks ettirilgan. Etnografik kolektsiyalarda dexqonlarning tabaqalanishi va xonavayron bo'lishi o'z aksini topmagan. SHo'rolar davrida vujudga kelgan ko'rgazmalar esa o'ta kuchli sinfiylashtirilgan nuktaiy nazar asosiga yaratilgan. Bu ko'rgazmalarda ishchilarining xujjatlari, ishchilarining fotosuratlari, yashirin tashkilotlar muxiti aks ettirilgan. Sho'rolar davriga oid o'ta mafkuralashtirilgan ekspozitsiyalar yangi nuqtai-nazar asosida ko'rib chiqilishi lozim bo'ladi.

Xozirgi zammonni aks ettiruvchi ekspozitsiyalar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunday ekspozitsiyalarda tasviriy manbalardan xujjatli fotografiyalar

birinchi o'rinda turadi; ko'rgazmali targ'ibotning turli ko'rinishlaridan keng foydalanadi; zamonaviy jamiyat xayotidagi muxim voqealar filatemiya va numizmatikada o'z ifodasini topadi.

Mazkur ekspozitsiyada sanoat va qishloq xo'jaligi yutuqlari; sanoat ob`ektlari, ko'rilihslar xaqidagi materiallar xam yetakchi o'rin tutadi.

Zamonaviy davrga bag'ishlangan ekspozitsiyalar tabiiy stabulemas. Ular doimiy ravishda yangi materiallar bilan to'ldirib boriladi.

O'lkashunoslik muzeylarning tarix bo'limlari.

O'lkashunoslik muzeylarining tarix bo'limlari mamlakat tarixining umumiyl davrlashtirishga tayangan xolda maxalliy va umum davlat tarixi o'rtasidagi tabiiy aloqadorlikni aks ettirishi lozim. Butun mamlakatga xos bo'lgan xodisa, maxalliy materialda aniqlashtiriladi. Ekspozitsiyaga umumlashtiruvchi materialni kiritamiz maxalliy voqealarning mamlakat tarixidagi o'rni va axamiyatini aniqlashga yordam beradi. O'lka xududida yuz bergen davlat axamiyatidagi voqeа maxalliy voqeа deb qaramasligi va aksincha o'lka chegarasidan chiqmaydigan voqealarning axamiyatini oshirib yuborish xam kerak emas.

Ko'pincha mintaqaning markaziy madaniy muassasasi bo'lgan o'lkashunoslik muzeylarning umumta`limiy va targ'ibot imkoniyatlarini kengaytirish uchun asosiy tarixiy ekspozitsiya bilan bir qatorda o'lkashunoslik yo'nalihsidan chetga chiqadigan, misol uchun "Insonning vujudga kelishi", "Dinning paydo bo'lishi" kabi doimiy vistafkalar tashkil etilishi mumkin. Qachondir muzey asoschilar yoki jonkuyarlari tomonidan to'plangan va muzeyda saqlanayotgan, lekin o'lkashunoslik xarakterida bo'limgan etnografik, numizmatik va boshqa materialarni ko'rsatishdan ham voz kechmaslik kerak. Ular muzey tarixi bilan tanishtiradi, tomoshabinning dunyoqarashini kengaytiradi va uning qiziqishiga sabab bo'ladi.

IV-Etnografik muzeylar. Ochiq osmon ostidagi muzeylar. Qo'riqxona muzeylar.

Tarixiy muzeylar profildagi muzeylarga etnografik muzeylar ham kiradi. Ularning ekspozitsiyasi etnografiya fanining muammolari va vazifalaridan kelib

chiqqan xolda turli xalqlarning turmush va madaniyatining tarixiy shakllangan o'ziga xos shakllarini tavsiflaydi, tarixiy rivojlanishdagi milliy an`analarning o'ziga xosligini aniqlaydi, maxalliy madaniy maishiy o'ziga xosliklarini o'rGANADI.

Ekspozitsiya mamlakatlar va xalqlar bo'yicha bo'limlarga bo'linadi va tarixiy izchillikda joylashtiriladi. Ularda xo'jalik va turmush shakliga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yoritiladi. Odatda bu ekspozitsiyalar xalq turmushining aloxida tomonlariga; xo'jalik, uy-joy, kiyim va boshqalar, shuningdek, ma`naviy madaniyatga bag'ishlangan bo'limlardan iborat bo'ladi.

Etnografik ekspozitsiyalarda materiallarning ayrim turlarining namoyishi bilan birga xayotiy komplekslar- mhenat sharoiti, marosim, urf-odatlar bilan bog'lik komplekslar muhim o'rIN tutadi. Aynan shu komplekslar manekenlarni joylashtirish uchun asos bo'la oladi. Ekspozitsiyada maneken mazkur millatga xos bo'lgan antropologik tip to'g'risida ham tasavvur beradi.

Etnografik muzeylarida arxitektura yodgorliklarini mehnat sharoitini ifodalovchi manzaralarini ochiq havoda namoyish etish amaliyoti ham qo'llanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Узб 1 прз Илалов И. Музееоведение. – Т.: Мусиқа, 2006.
2. Юренева Т.Ю. Музееоведение. – Москва: Академпроект, 2003.
3. kuryazova D.T. o'zbekistonda muzey ishi tarixi. — Т.: san'at, 2010.
4. Столяров Б.А. Музейная педагогика. История, теория, практика. – М.: Высшая школа, 2004.
5. Юренева Т.Ю. Музееоведение. – М.: Академпроект, 2003.
- 6.архив.уз